BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI YUKSAK MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR HAMDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH USTUVOR VAZIFADIR

Xolmurodova Sitora Abdullayevna
Toshkent shahar, Chilonzor tumani 195-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi “Ingliz tili” fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *globallashuv sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyatini yoritish, ularda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati, sadoqat, jasorat va daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirishning samarali usullarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish, “Kelajak soati” darslari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vatanparvarlik fazilatlarini yuksaltirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.*

Tayanch so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, Vatanga muhabbat, fuqarolik mas'uliyati, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usi, ta’lim-tarbiya, yosh avlod tarbiyasi.*

Kirish

Bugungi kunda globallashuv va axborot-texnologik taraqqiyot jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri va ma’naviy-axloqiy qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Turli axborot oqimlari, ommaviy madaniyat, yot g‘oya va mafkuraviy ta’sirlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda Vatan, oila, milliy qadriyatlar, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, halollik, adolat, mas'uliyat va burch kabi tushunchalar haqida dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kelajakda ularning barkamol, faol va yurt taqdiriga daxldor shaxslarni voyaga yetkazishning muhim shartidir.

“Mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish” [1] davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Vatanparvarlik tarbiyasi faqat Vatanni sevish haqida tushuncha berish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarda o‘z yurtining tarixi va madaniyatiga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etish kabi fazilatlarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, umumta’lim maktablarida “Kelajak soati” darslari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar, ijodiy tanlovlar, milliy qadriyatlarga asoslangan o‘yin va mashg‘ulotlardan samarali foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish bugungi kunda pedagoglarning muhim vazifalaridan biridir.

Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nafaqat bugungi ta’lim tizimining, balki kelajak avlodning ma’naviy qiyofasi, yurt tinchligi va mamlakat taraqqiyotini ta’minlashning muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ilm-ma’rifatga yo‘naltirish, jamiyat va Vatan oldidagi mas'uliyatini anglatish masalalari muhim o‘rin egallagan. Ularning ilmiy va ma’rifiy merosi bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun ham muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratib, insonning kamoloti bilim va ezgu fazilatlarni egallashi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida adolat, ezgulik, hamjihatlik va jamiyat farovonligi kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Forobiy qarashlaridan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yaxshilik qilish, adolatli bo‘lish, jamoa bilan hamjihatlikda harakat qilish kabi fazilatlarni shakllantirish muhimdir.

Abu Ali Ibn Sino bola tarbiyasida uning yoshi, qobiliyati va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlagan. U ta’lim-tarbiyani insonning aqliy, jismoniy va axloqiy kamoloti bilan uzviy bog‘lagan. Ibn Sinoning pedagogik qarashlari boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarbiya usullaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy ilm-ma’rifat, mehnat, insonparvarlik va axloqiy fazilatlarni inson kamolotining muhim shartlari sifatida baholagan. Uning ilmiy merosida bilimga intilish, haqiqatni izlash va insonlarga foyda keltirish g‘oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu qarashlar o‘quvchilarda ilmga qiziqish, mehnatsevarlik va jamiyatga naf keltirish istagini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat, aql, bilim, qanoat va odob kabi insoniy fazilatlar keng yoritilgan. Mutafakkir jamiyat taraqqiyotini insonlarning ma’naviy kamoloti va ezgu fazilatlari bilan bog‘laydi. Uning qarashlari yosh avlodda odob-axloq, mas'uliyat, adolat va burch tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi, insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, saxovat va Vatanga sadoqat g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. Navoiy insonning qadri uning ezgu amallari, ilmi, odobi va xalqqa keltiradigan nafida namoyon bo‘lishini uqtiradi. Shu jihatdan uning ma’naviy merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish uchun katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Amir Temurning davlatchilik va harbiy-siyosiy qarashlarida Vatanni himoya qilish, xalq manfaatiga xizmat qilish, intizom, sadoqat, jasorat va mas'uliyat kabi tushunchalar muhim o‘rin egallaydi. Uning merosidan yosh avlodga Vatan tinchligi va xavfsizligini qadrlash, yurt

manfaatlariga sadoqatli bo‘lish, intizom va mas'uliyatni his etish kabi tushunchalarni singdirishda foydalanish mumkin.

Abdulla Avloniyning pedagogik merosi mavzu uchun alohida ahamiyatga ega. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiya inson hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri ekani ta’kidlanadi. Avloniyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va ilm-ma’rifat ruhida tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, buyuk allomalarimizning ma’naviy-ma’rifiy merosida ilm, odob, axloq, adolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga sadoqat kabi g‘oyalar mushtarak ekanini ko‘rish mumkin. Mazkur g‘oyalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etib borish ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

O‘zbekistonda yosh avlodni yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosati doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun va usullarini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy va ta’sirchan pedagogik yondashuvlarni joriy etish masalasini yanada dolzarblashtiradi.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida o‘zbek xalqining boy milliy qadriyatlari, tarixiy-madaniy va ma’naviy merosini asrab-avaylash, uni keng ommalashtirish va kelajak avlodga yetkazish, shuningdek, ushbu merosni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida xalqimizning boy ma’naviy merosi, buyuk allomalar va mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy merosi, milliy urf-odat va an’analaridan samarali foydalanish ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda yoki har bir insonda yukak ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhimligi xususida bir qator olimlar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Ma’naviy tarbiyaning negizini “ma’naviyat” tashkil qiladi. Ma’naviyat o‘zi nima? Ma’naviyat qanday tushunchani anglatadi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu tushunchaning mazmun-mohiyatiga izoh berib o‘tsak.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Ma’naviyat – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, insonlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir” [2].

Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida, “Ma’naviyat – (arabcha, ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy falsafiy tushunchadir”[3]

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ma’naviyatga quyidagicha ta’rif berilgan. “Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi [4]

Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yosh avlodni, xususan, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat, yuksak axloqiy fazilatlar hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Zero, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini rivojlantirish, balki ularni ma’naviy barkamol, axloqan yetuk va jamiyatda munosib o‘rin egallay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

E.Umarov va M.Abdullayevlar esa ma’naviyatga quyidagicha ta’rif beradilar, “Ma’naviyat deganda – shaxsiy ong, kishilarning ruhiy faoliyati, axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar yig‘indisi, haqikat va himmat hamda go‘zallikning qiyomi, insonning his-tuyg‘ulari, insonning jamiki axloqiy qadriyatlari yig‘indisi kabilar tushuniladi” [5] deb ta’kidlaydilar.

A.Erkayev esa “Ma’naviyat eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e’tiqod va qadriyatlariga aylangan g‘oyalari, me’yorlari, amallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishidir hamda ezgu niyatlarini, orzu-havaslarni amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir. Ma’naviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, ya’ni, har bir narsa va hodisalarga baho berishda, ta’sir ko‘rsatishda insoniylik me’yorlaridan kelib chiqib yondashishidir”[6] degan ta’rifni beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, “Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[7] degan fikrlari har birimiz uchun dasturil amal bo‘lishi zarur.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya borasida o‘zbek olimlari quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan. J.Xudoyqulov “Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos vazifalari etib: 1) ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish; 2) ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish; 3) ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirishdir”[8]. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, ularni Vatan va xalq oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish muhim hisoblanadi. Vaholangki, o‘quvchilarda jamiyat va mamlakat hayotiga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali shakllanadi.

D.Farsaxanova “Ma’naviy-axloqiy tarbiya – jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy me’yorlar mazmunini tushuntirish, ushbu me’yorning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglatish, ularda xalqning milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan holda yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, ijobiy munosabatlarga kirisha olish ko‘nikmalarini rivojlantirish kompetensiyalarini tarkib toptirish jarayonidir”[9].

O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish faqat Vatan haqida ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, ularda milliy g‘urur, yurt taqdiriga daxldorlik, tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, fidoyilik, mas'uliyat, sadoqat va jamoaviylik kabi fazilatlarni tarbiyalashni ham qamrab olishi lozim. Bunda xalqimizning boy tarixi, milliy qadriyatlari,

urf-odatlari, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosi va ibratli hayot yo‘lidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasini qiziqarli, ta’sirchan va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish ularning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi. Xususan, “Kelajak soati” darslari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, ijodiy tanlovlar, sahna ko‘rinishlari va ta’limiy o‘yinlardan maqsadli foydalanish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar mazmunini yanada takomillashtirish.
2. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy obidalar, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ilmiy-ma’naviy merosidan keng foydalanish.
3. “Kelajak soati” darslarida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tinchlik, sadoqat, burch va mas'uliyat kabi tushunchalarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda singdirish.
4. Maktablarda harbiy xizmatchilar, harbiy akademik litseylar o‘quvchilari, soha faxriylari va Vatan himoyasi bilan bog‘liq kasb egalari ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etish.
5. O‘quvchilar o‘rtasida “Mening Vatanim”, “Vatan — muqaddas”, “Ajdodlarimga munosib avlodman” kabi mavzularda insholar, rasmlar, ijodiy ishlar va tanlovlarni muntazam o‘tkazish.
6. Ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasida oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish, ota-onalarni tarbiyaviy tadbirlarga keng jalb etish.
7. O‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish bilan bir qatorda, ularni turli yot g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatda bo‘lishga tayyorlash.

Azaldan o‘quvchi ta’lim va tarbiyasiga juda katta e'tibor bilan qarab kelingan. Binobarin, davlat va jamiyatning mustaqilligi va mustahkamligi bevosita mana shu masala bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bolalar va yoshlarning tarbiyasi, ayniqsa, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy omillarni shakllantirish barcha zamon va makonlarda jamiyatning eng muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan.

Xulosa

Bugungi globallashuv va axborot makoni jadal rivojlanayotgan sharoitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim davrida bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, Vatanga, oilaga, milliy qadriyatlarga va atrofidagi insonlarga munosabati shakllana boshlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularning kelajakda ma’naviy yetuk, milliy o‘zligini anglagan, Vataniga sadoqatli va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi yashaydi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyalash orqali boshlang‘ich o‘quvchilarida adolat, halollik, mas'uliyat, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, Vatanga sadoqat va yuksak insoniy fazilatlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son qarori. Elektron manbaa: URL–https://lex.uz/docs/6518238 (murojaat vaqti 16.08.2026-y)
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: – B. 565. Elektron manbaa: // URL–https://n.ziyouz.com/ books/ uzbek tilining izohli lugati/pdf
3. Nazarov Q. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: 2021. – B. 345.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent. – B. 334. Elektron manbaa: // URL–https://n.ziyouz.com/ books/uzbekiston milliy ensiklopediyasi/pdf
5. Umarov E. Abdullayev M. Ma’naviyat asoslari. ¬¬– Toshkent: 2005.– B. 6.
6. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 5-6
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent., “O‘zbekiston” – B. 261.
8. Xudoyqulov X. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Termiz: 2020. – B. 20.
9. Farsaxanova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talablarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish diss... – Toshkent: 2020. – B. 17.